

YANGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI ISHONCHLI HIMOYA QILISH KAFOLATLARINI TA’MINLASH

Farmonova Ruxshona Xayotjon qizi
Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi yo‘nalishi 2- kurs talabasi

Abstract: This article analyzes the reforms carried out by the Republic of Uzbekistan to ensure the rights and freedoms of citizens after gaining independence.

Keywords: personal, social and economic rights, Constitution, law, parliament, Principles of Freedom of Information, citizens' self-government bodies.

Аннотация: В статье анализируются реформы, которые провела Республика Узбекистан по обеспечению прав и свобод своих граждан после обретения независимости.

Ключевые слова: личные, социальные и экономические права, Конституция, закон, парламент, принципы свободы информации, органы самоуправления граждан.

Mamlakatimizda o‘tgan yillar mobaynida inson huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 moddasida “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi” [1] -degan qoida belgilab qo‘yilgan. Ushbu konstitutsiyaviy prinsip doirasida Asosiy Qonunimizning 7-9-boblarida inson va fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquq, erkinliklari hamda ularning kafolatlari belgilab berildi. Xususan, Qomusimizning 7-bobida insonning shaxsiy huquq va erkinliklari belgilangan bo‘lib, ular tizimida fuqarolarning ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasi mazmunidan anglashiladigan ushbu huquq mazkur moddada “O‘zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari zimmasiga ushbu materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berish majburiyati tarzida yuklangan. Mazkur konstitutsiyaviy norma o‘z mohiyatiga ko‘ra, fuqarolarning Konstitutsiyaning 33-moddasida mustahkamlangan har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqi hamda 34-moddada belgilangan jamiyat va davlat

ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi bilan uzviy bog‘liqdir. Ya’ni, fuqarolar o‘zlarining huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish orqali boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratadilar” [2].

Asosiy Qonunimiz 34-moddasida belgilangan fuqarolarni ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqishi uchun imkoniyat yaratib berish majburiyati axborot erkinligi kafolatlaridan biri bo‘lib, ushbu konstitutsiyaviy norma O‘zbekiston Respublikasining o‘ndan ortiq qonun hujjatlarida yanada rivojlantirilgan, uni ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha mexanizm va tartibotlar belgilab berilgan. Xususan, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har kimga o‘zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta’minlab berish bilan bog‘liq bir qator mexanizmlar belgilab berilgan. Unga ko‘ra, Konstitutsiya bo‘yicha tegishli majburiyat yuklangan yuqorida qayd etilgan sub’ektlar maqbul axborot resurslari yaratishlari, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta’minlashlari shart [3].

Shu singari normalar O‘zbekiston Respublikasining boshqa bir qator amaldagi qonun hujjatlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasi to‘g‘ridan to‘g‘ri “O‘zlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalanishi”ga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra, yuridik va jismoniy shaxslar o‘zlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan erkin foydalanish, mazkur ma’lumotlarning to‘liqligi hamda to‘g‘riligini ta’minlash maqsadida ularga aniqliklar kiritish huquqiga ega. O‘zlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalanishi qonun bilan cheklanishi mumkin. Yuridik va jismoniy shaxslarga o‘zlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan erkin foydalanishni axborot resurslarining mulkdori yoki egasi rad etganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Bu borada 2017 yil 24 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n birinchi yalpi majlisida ma’qullangan “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahririda ham Asosiy Qonunimizning 30-moddasidan kelib chiquvchi bir qator muhim qoidalar belgilangan. Xususan, unda davlat organi, tashkilot va ularning mansabdor shaxslari murojaatni ko‘rib chiqish chog‘ida murojaat qiluvchilarga ularning

huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini, agar ular davlat siri yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘z ichiga olmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa, ta‘minlashi shartligi belgilangan.

Kezi kelganda ta‘kidlash lozimki, qonun hujjatlari bilan ayrim turdagi axborotdan foydalanish va tanishib chiqish uchun qo‘shimcha kafolatlar belgilanishi mumkin. Bu ushbu turdagi axborotning inson hayoti va sog‘lig‘i, xavfsizligi bilan bevosita bog‘liqligi bois, ular bilan tanishib chiqishga bo‘lgan zaruriyat bilan izohlanadi. Xususan, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun 30-moddasida jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari falokatlar va boshqa hodisalar natijasida atrof tabiiy muhit normativda belgilanganidan ham ortiqroq darajada ifloslangan taqdirda bunday falokat va hodisalar to‘g‘risida jamoatchilikni darhol xabardor etishlari shartligi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasi davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari aholining va hududlarning favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish holati hamda ularning xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan ko‘rilgan choralar haqida, oldindan bashorat qilinayotgan va ro‘y bergan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida, ulardan aholini muhofaza qilishning usul va yo‘llari haqida ommaviy axborot vositalari hamda boshqa kanallar orqali aholini o‘z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor etishlari shartligi belgilangan. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunning (Yangi tahriri) 35-moddasida ham favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi shoshilinch xabarlar yoki vakolatli davlat organlari tomonidan jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazish maqsadida berilgan xabarlar barcha ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinishi belgilab qo‘yilgan. Yoki bo‘lmasa, qonun hujjatlarida jamiyatdagi ayrim toifa ijtimoiy guruh, qatlamlarning tegishli axborotdan foydalanish huquqini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlar ham belgilanishi mumkin. Masalan, yangi tahrirdagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 30-moddasida tadbirkorlik sub’ektlarining axborotdan foydalanish kafolatlari o‘rnatilgan. Unga ko‘ra, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari tadbirkorlik faoliyati sub’ektlariga mazkur sub’ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qonun hujjatlari, hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta‘minlashi shart. Axborotdan foydalanish qonun hujjatlarini va tegishli materiallarni ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida e‘lon qilish va tarqatish yo‘li bilan ta‘minlanadi. Xuddi shuningdek, “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi

Qonunning 13-moddasida vakolatli organlar tadbirkorlik sub’ektlari ruxsat berish tartib-taomillaridan o’tish tartibi to’g’risidagi nizomlar bilan moneliksiz tanishib chiqishi va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish uchun zarur bo’lgan hujjatlar moneliksiz taqdim etilishi uchun shart-sharoitlar yaratishini belgilaydi. Ushbu normalar shubhasiz tadbirkorlik sub’ektlari erkin faoliyat ko’rsatishi uchun muhim huquqiy zamin hozirlaydi.

Shu bilan bir qatorda qonun hujjatlarida sud ish yurituviga jalb qilingan shaxslarning axborot bilan tanishishga bo’lgan huquqlarining qo’shimcha mexanizmlari ham belgilangan. Xususan, “Sudlar to’g’risida”gi Qonunning 8-moddasi, FPK 9-moddasi; XPK 10-moddasi va JPK 20-moddasida sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to’la tanishish huquqi ta’minlanishi belgilangan. Qonun hujjatlarini bilan ayrim davlat organlariga nisbatan ham fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga taalluqli hujjatlar hamda materiallar bilan tanishib chiqish bo’yicha qo’shimcha majburiyatlar yuklanishi mumkin. Masalan, “2016 yil 16 sentyabrdagi “Ichki ishlar to’g’risida”gi Qonunning 8-moddasida, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo’lsa, ichki ishlar organlari har bir fuqaroga o’zlarida mavjud bo’lgan, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga bevosita daxldor bo’lgan hujjatlar hamda materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta’minlashi shart. Yoki bo’lmasa, Bojxona kodeksida bojxona brokerlarining reyestrtdagi axborot O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi va tanishish uchun ochiq bo’lishi talabi belgilangan (280-modda)” [4].

O’zbekiston Respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to’g’risida”gi Qonunning 7-moddasida ham davlat organlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar zimmasiga tegishli majburiyat yuklangan. Ushbu Qonunda axborot olish imkoniyatini ta’minlash yo’llari ham ko’rsatilgan – axborot olish imkoniyati qonun hujjatlarini va tegishli materiallarni e’lon qilish va tarqatish yo’li bilan ta’minlanadi.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada belgilangan normalarni amalga oshirishda 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 fevralda qabul qilingan “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ–2761-sonli qarori muhim ahamiyat kasb etdi.

Xususan, bu borada ushbu hujjatlar doirasida ishlab chiqilgan hamda 2017 yil 24 avgust kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o’n birinchi yalpi majlisida ma’qullangan “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni

ta'minlash to'g'risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda muhim qadam bo‘ldi. Ushbu qonun huquqiy axborot tarqatish sohasidagi u yoki bu munosabatlarni tartibga soluvchi yigirmadan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘zida mujassam etib, bu sohadagi huquqiy boshqaruvning tizimli bo‘lishini ta'minlaydi. Qonunda huquqiy axborotni tarqatishni tashkil etish, bu boradagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish uchun mas’ul bo‘lgan vakolatli organ deb O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi belgilangan.

Qonun bilan huquqiy axborotni tarqatishning aniq tartibi va usullari belgilab berilgan. Birinchi – qabul qilingan qonun hujjatlarini rasmiy va norasmiy tarqatma tarzida tarqatish, ularni Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida va davlat organlarining veb-saytlarida joylashtirish tartibi o‘rnatilmoqda. Ikkinchi – Qonun bilan davlat organlarida me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirilgan holda hisobga olishning majburiy tartibi joriy etilib, uning so‘zsiz ijro etilishi ustidan nazorat tizimi mustahkamlab qo‘yilmoqda. Uchinchi –Qonunda huquqiy targ‘ibot yuritish huquqiy axborot tarqatishning samarali usullaridan biri sifatida ta’riflangan bo‘lib, uni amalga oshirish shakllari mustahkamlab qo‘yilgan: konferensiya, uchrashuv, seminar, davra suhbatlari va muloqotlar o‘tkazish; qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, amaldagi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini ochib beruvchi tele- va radiodasturlar uyushtirish, bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida materiallar joylashtirish, sharhlar, risolalar, plakatlar, bukletlar tarqatish shular jumlasidandir.

Shu bilan bir qatorda ta’kidlash lozimki, ushbu konstitutsiyaviy normani to‘liq realizatsiya qilinishini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 44-moddasida “Hujjatlar bilan tanishib chiqishni asossiz ravishda rad etish” uchun ma’muriy javobgarlik o‘rnatilgan. Unga ko‘ra, mansabdor shaxslar tomonidan fuqaroga uning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini berishni asossiz ravishda rad etishi tegishli tartibda ma’muriy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni ushbu konstitutsiyaviy normani amalga oshirish bilan bog‘liq bir qator muhim qoidalarni belgilab berdi. Xususan, unda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish ko‘zda tutilgan. “Davlat organlarining aholiga “Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatishga erishdik. Bu, o‘z navbatida, xalqimizning og‘irini yengil qilish, ularga “davlat – fuqaro” munosabatlarida qulaylik yaratish va shaffoflikni ta'minlash

maqsadida davlat xizmatlari ko'rsatishning yangi tizimi ishlab chiqilganidan dalolat beradi" [5].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasida belgilangan fuqarolarning o'zlarining huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqishga bo'lgan huquqlari mamlakatimizda axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash sohasidagi amalga oshirilayotgan izchil va uzluksiz islohotlar sharoitida yangicha mazmun bilan boyimoqda hamda ushbu konstitutsiyaviy huquqni ta'minlashning yangi usul va mexanizmlari joriy etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (mazkur yangi tahriridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). T.: "O'zbekiston", 2023.- 8-9 – betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (mazkur yangi tahriridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). T.: "O'zbekiston", 2023.- 8-9 – betlar.
3. https://constitution.uz/uz/pages/hujjatlar_bilan_tanishib_chiqish_huquqi
4. https://constitution.uz/uz/pages/hujjatlar_bilan_tanishib_chiqish_huquqi
5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: O'zbekiston, 2021.-83 – bet.